

# ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

SJIF 2021: 5.723

2021/04

VOLUME 2

ISSUE 4



RESEARCHBIB

ACADEMIC RESOURCE INDEX

Google  
scholar



CYBERLENINKA


INTERNET ARCHIVE

Research

We increase scientific  
potential together!

ARES.UZ

Exact Sciences  
Natural Sciences  
Technical Sciences  
Pedagogical Sciences  
Medical Sciences  
Social and Humanitarian Sciences



TOGETHER WE REACH THE GOAL



## BOSHQARUV ILMIGA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY QARASHLARI

**Fotima Uralovna Jumanova**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti  
[zumanovafatima@gmail.com](mailto:zumanovafatima@gmail.com)

**Saloxiddin Abdusalomov Alfayzov**

Toshkent viloyat Chirchiq pedagogika instituti magistranti  
[alfayzovsalohiddin@gmail.com](mailto:alfayzovsalohiddin@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungu kun pedagog xodimlaridan boshqaruv ilmini egallashda tarixga nazar tashlashlari va buyuk allomalarimiz qarashlariga murojaat qilish zarurligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, boshqaruv, rahbar, shaxs, yomon odat, ilm-ma'rifat, adolat, davlat.

## SCIENTIFIC VIEWS OF EASTERN THINKERS ON MANAGEMENT SCIENCE

**Fotima Uralovna Jumanova**

Associate Professor of Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region  
[zumanovafatima@gmail.com](mailto:zumanovafatima@gmail.com)

**Saloxiddin Abdusalomov Alfayzov**

Master student of Chirchik Pedagogical Institute of Tashkent region  
[alfayzovsalohiddin@gmail.com](mailto:alfayzovsalohiddin@gmail.com)

### ABSTRACT

The article analyses the needs for today's teachers to look at history and apply the views of our great scholars in the acquisition of management science.

**Keywords:** teacher, management, leader, person, bad habit, knowledge-enlightenment, justice, state.

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish, ta'lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori professional darajada bajarishga qodir bo'lgan rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. Zamon yoshlarining jahon talabi darajasida bilim olishlari uchun bo'lajak mutaxassislarni innovasion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovasion ta'lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlarda o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, dars jarayonini boshqarish kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rahbar shaxsini o'rganish muammosi kishilik jamiyatining barcha davrlarida muhim masala bo'lib kelgan. Buning asosiy sababi birinchidan, har bir davrdagi ijtimoiy munosabatlar o'ziga xos ravishda ijtimoiy mavqye jihatidan kimningdir yuqori darajada turishini taqozo etgan bo'lsa, ikkinchidan, insonlarning hayot kechirish tarzi, ravnaqi, darajasi, farovonligi, baxtli turmush kechirishi shu yuqori mavqyedagi shaxsga, uning turli fazilatlari va xislatlariga bog'liq bo'lganligidir.

Bugungi kun pedagogining zamon talablariga javob berishini aniqlash, shaxsni shakllantirishda tarbiyaning maqsad va vazifalari, qoidalari, ta'lim va tarbiya metodlari, uning qadimiy ildizlari (genezisi)ni aniqlashda Sharqning taniqli qomusiy olim va mutafakkirlarining hissalarini kattadir. Buyuk Sharq mutafakkirlari Konfusiy, AlXorazmiy, Al-Kindiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Mirzo Ulug'bek, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar birinchilardan bo'lib ta'lim metodlarini ilmiy asoslab berishgan.

Tadqiqot mavzuiga oid Sharq mutafakkirlarning o'z asarlarida keltirib o'tgan boshqaruv ilmiga xos qarashlarini psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilish, qiyosiy tahlilmetodlaridan foydalanildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshqaruv - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli.

Boshqaruv jarayonining mohiyati maqsad - natijani mos kelish yo'nalishi bo'yicha harakatni yo'lga solishdan iborat bo'ladi.

Sharqda o'z ta'limoti bilan tarixda qolgan buyuk Xitoy faylasufi Konfusiy, Kun Fuszi (mil. av. 551–479) asarlari, boshqaruv to'g'risidagi qarashlari oradan ming yillab vaqt o'tib borayotgan bo'lsa-da dolzarbligini yo'qotayotgani yo'q. Zero, Xitoyda Konfusiy axloqiga binoan inson dunyo tartiboti tizimida favqulodda o'rin tutishi, umumiy dunyo taqdiri uchun mas'ullik hissining cheksizligi targ'ib etilsa, kosmologiya g'oyasida siyosat va kosmik ritm o'rtasida murosa o'rnatilishi asoslangan. Xitoy siyosati esa "inson o'ziga kim" deb emas, "inson davlat uchun kim" degan savolga javob izlar edi. Inson jamiyatda faqat o'z qobiliyatiga tayanib, qachon undan foydalanishlari muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. Shu boisdan ham Xitoyda davlat jamiki jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida jamiyatda har bir individning ijtimoiy mavqeini ham belgilab boruvchi omil vazifasini o'tar edi. Konfusiy osmoniy g'oya nazariyasini ijtimoiy-psixologik tadqiq etgan holda ma'rifiy bo'yoqlar bilan yanada rivojlantirdi.

O'rta asrlarda yashagan, mashhur olim Abu Nasr Forobiy jamiyat taraqqiyotida rahbarning xizmati benihoya katta ekanini ta'kidlab, o'zi orzu qilgan adolatli jamiyat rahbari bir qator fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini alohida uqtirib o'tgan. "Kimki birovni baxt va saodatga erishtirish uchun zarur bo'lgan ish-harakatlarga ruhlantira olish qobiliyatiga ega bo'lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo'lsa, bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi. Ular yo'l-yo'riqlarni o'tmishda yashab o'tgan boshliqlardan o'rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak o'tmishdagi rasm-rusm, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hych qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi. Uning nazarida har bir rahbar:

1. Sog'-salomat bo'lishi;

2. Nozik farosatli bo'lishi, fikrlarni tezda ilg'ab olishi va umumiy ahvolni ravshan tasavvur etishi;
3. Ko'rgan va eshitganlarini xotirasida to'liq saqlay olishi;
4. Zehni o'tkir va o'zi zukko bo'lishi;
5. O'z fikrini ravshan va chiroyli so'zlar bilan tushuntira olishi;
6. Ilmu ma'rifatga doimo intilishi;
7. O'z nafsini tiya olishi;
8. Haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevishi;
9. O'z qadrini biluvchi, pastkashlikdan yuqori turuvchi, or-nomusli va oliyhimmat inson bo'lishi;
10. Mol-dunyoga qiziqmaydigan bo'lishi;
11. Haqsizlik va razolatga qarshi murosasiz adolatparvar inson bo'lishi;
12. Qat'iyatli, jur'atli va jasur bo'lishi lozim.

Forobiy bu talablarni har bir rahbarning zimmasiga bejiz qo'ymagan, chunki yuqorida sanab o'tilgan oliy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan inson nafaqat o'zining barkamolligi, balki boshqalarning baxtsaodati yo'lida ham ko'p xayri ishlarni amalga oshira olishi shubhasiz.

Forobiy ta'limotini davom ettirgan holda, Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" ("Baxtga eltuvchi bilim") asarini yaratdi. Xalq orasida "hukmdorlar odobi" nomi bilan mashhur bo'lgan bu asar rahbarning asosiy fazilatlariga, uning zimmasidagi vazifalarga bag'ishlangan. Mazkur asarda hukmdor yoki rahbar uchun eng asosiy mezon adolat, uning qanoti esa bilim va qanoat bo'lishi lozimligini asar muallifi alohida ta'kidlab o'tadi. "Qutadg'u bilig"da mamlakat boshlig'i bo'lish uchun kishining tag-tubi, asl nasli toza, andishali, pokiza xulqli, aql-idroki kuchli bo'lishi, g'aflatda qolmasligi, yolg'on gapirmasligi shart, degan yo'l-yo'riqlar berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, El uchun ikki narsa mustahkam tayanchdir: biri xushyorlik, ikkinchisi adolat. Ikkalasi adolat ildizidir.

XV asrda Sharqda siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi rivojiga katta hissa qo'shgan olim Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniy (1427–1502) o'zining "Axloqi Jaloliy" asarida boshqaruv jarayoniga oid qarashlarini bayon etgan. Jumladan, asar uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda axloq haqidagi qarashlar, ikkinchi qismda oilani boshqarish haqidagi qarashlar va uchinchi qismda shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati to'g'risidagi fikr-mulohazalar qayd etilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Davoniy ushbu "Axloqi Jaloliy" asarida jamiyatni adolatli – fozil shaharga va johil shaharlarga bo'ladi. Forobiy kabi Davoniy ham fozil

shahar boshqaruvchisida o'nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo'lishi kerak deydi. Bulardan:

- birinchisi hukmdor odamlarni e'zozlashi;
- ikkinchisi davlat ishlarini adolatli ijro etishi;
- uchinchisi hirs va shahvatga berilmasligi;
- to'rtinchisi hukmdorlikda shoshma-shosharlik va g'azabga yo'l qo'ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi;
- beshinchisi xalqning ehtiyojini qondirish uchun Xudoning irodasidan kelib chiqishi;
- oltinchidan xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi;
- yettinchisi xalqqa nisbatan odil bo'lishi; sakkizinchi har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi;
- to'qqizinchisi har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni;
- o'ninchisi adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo'l qo'ymaslik kabilardir.

**Yusuf Xos Hojibning fikricha: "Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo'lib qolishi lozim"**



**1-rasm. Yusuf Xos Hojibning boshqaruv sohasidagi qarshlarni tizimlashtiririlishi**

## XULOSA

Demak Davoniy kabi boshqa mutaffakirlar fikriga ko'ra, jamiyatning paydo bo'lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli hukmdor masalasi jamiyatdagi aqliy va axloqiy tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, davlat va uni boshqarishda,

xalqning farovon hayot kechirishida hukmdorlarning o'rnini, ilm-fanning o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Olimlarning jamiyatda, davlatni boshqarishda tutgan o'rniga katta ahamiyat beradi, uning fikriga ko'ra haqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan murakkab muammolarni yechishda ishtirok etishi kerak.

Yuqorida olib borilgan nazariy tahlildan ko'rinadiki, tarixiy davlatchilik hududimizda yashab ijod etgan mutafakkirlar, davlat arboblari, namoyandalari asarlari va qarashlari boshqarish, rahbarlik muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ularda ijtimoiy voqeylikka nisbatan ijtimoiy-psixologik yondashish, insonparvarlik g'oyalari ustuvor etib olingandir.

### REFERENCES

1. Беруни Абу Райхан. Индия. Соч., т.2. – Т.: «Фан», 1963. – С. 8–125.
2. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б 167–170.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: “Фан”, 1972. – Б. 163.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. Шарқ – Қизилқум. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 169–170.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. А – Бешбалик. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 217–723.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. Тўйчи Ҳофиз – Шаршара. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 288–292.
7. Ҳайитов О.Э. Олий таълим муассасаси ўрта бўғин раҳбарлари психологик компетентлигини моделлаштириш: Психол. фан. док. ... дис.: 19.00.05. – Тошкент: ТошДПУ, 2020. – 318 б.
8. Ураков Ш. Р. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашнинг компетент ёндашувга асосланган педагогик тизимини такомиллаштириш: П. ф. ф.д. Автореферати.: 13.00.01. – Самарқанд: СамДУ, 2018. – 48 б.